

# **INFORMATIKA VA AT FANINI O'QITISHDA TUSHUNCHALAR TAHLILI**

## **METODINI QO'LLASH HAQIDA**

Madraximov Shuxratjon Shukurovich, Qo'qon DPI, assistent o'qituvchi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiyoq o'rta ta'limga muktablari 9-sinflarida mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish metodikasi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** umumiyoq o'rta ta'limga muktablari, interfaol metod, texnologiya, "Tushunchalar tahlili" metodi, ijodiy fikrlash, samaralilik.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается проведение уроков в 9 классах общеобразовательной школы на основе современных педагогических технологий.

**Ключевые слова:** общее среднее образование, интерактивный метод, технология, метод «Анализ концепций», творческое мышление, эффективность.

**Annotation:** This article discusses the conduct of lessons in the 9th grade of a comprehensive school based on modern pedagogical technologies.

**Keywords:** general secondary education, interactive method, technology, "Analysis of concepts" method, creative thinking, efficiency.

Umumiyoq o'rta ta'limga muassasalarida informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning asosiy maqsadi - o'sib kelayotgan avlodni zamonaviy axborot texnologiya vositalari bilan ishlash malakalari, mustaqil, mantiqiy va algoritmik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat va olgan bilimlarini hayotda tatbiq etishga o'rgatishdan iborat.

Umumiyoq o'rta ta'limga muassasalarida informatika va axborot texnologiyalari ta'liming asosiy vazifalari:

o'quvchilarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ularni amaliyotda qo'llash haqida bilimlar berish;

o'quvchilarni aqliy rivojlantirish, ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini o‘rgatib borish orqali ularda umuminsoniy qadriyatlarga rioya etishni rivojlantirishga qaratilgan va ta’lim-tarbiya olishning keyingi bosqichlarida davom ettirishlari uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. [1: -B. 24].

Informatika va AT fanini o‘qitishning konseptual asoslari sifatida shuni qayd etish joizki, informatika fanini zamonaviy talablar asosida o‘rganish: zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida hayotiy muammolarni yechish, loyihalashtirish, modellashtirish, algoritmlash va boshqarish kabi universal faoliyatlarni o‘zlashtirish; raqamli jamiyatdagi masalalarini yechish mahoratini namoyon qilish orqali samarador texnologiyalarni tanlash; kreativ fikrlash va innovatsion faoliyat yuritish ko‘nikmasini shakllantirish orqali maqsadli axborot tizimlarini va mehnatga ta’sir o‘tkazishning innovatsion uslublarini yaratish; ta’lim jarayonida har xil kasbiy ko‘nikmalarni egallash orqali mustaqil hayotda zarur bo‘ladigan bo‘lajak kasbni to‘g‘ri tanlash; mehnat qilish, yangi bilimlarni egallash, mukamallikka erishish uchun raqamli texnologiyalar asosida o‘z ustida mustaqil ishlash va amaliy faoliyat yuritish; tez o‘zgaradigan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sharoitlarga moslashuvchan, noaniq vaziyatlarda mustaqil ta’lim olishga tayyor va umri davomida tahsil oladigan yoshlarni tarbiyalashdan iborat. [2: -B. 14].

Shu sababli, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini mustaqil bilim olishiga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanishga o‘rgatish va doimiy ravishda faolligini oshirib borish lozim.

Biz quyida quyida 9-sinf o‘quvchilariga “Model va uning turlari” mavzusini o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalarni keltiramiz [3: -B. 17].

“Model va uning turlari” mavzusidan dars mashg‘ulotini tashkil etishda o‘tilganlarni takrorlash bosqichida “Tushunchalar tahlili” metodidan foydalanilsa o‘quvchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi. [4: -B. 84].

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘quvchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda) (1-rasm);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma`no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma`lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Tushunchalar	Mazmuni
Obyekt	
Model	
Modellashtirish	dasturiy muhit vositalari bilan ifodalangan matematik model
Matematik modellar	
Verbal modellar	modellashtirish obyektlarining moddiy nusxalari

### 1-rasm. “Tushunchalar tahlili” metodining topshiriqlari

O‘quvchilar yakka tartibda yangi mavzu bo‘yicha yuqoridagi topshiriqlarda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar. Mavzu bo‘yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan bilimlari asosida izoh yozadilar (berilgan tushunchalarni qanday tushungan bo‘lsalar shunday). O‘qituvchi topshiriqda berilgan tushunchalarni o‘qiydi va jamoa bilan bирgalikda har bir tushunchaga to‘g‘ri izohni belgilaydi va ekranda slayd orqali tanishtiriladi (2-rasm).

Tushunchalar	Mazmuni
Obyekt	(lot. objectum — narsa, anjom) haqiqatda mavjud bo‘lgan, kuzatuv (o‘rganish) jarayonining va subyektning (kuzatuvchining) e’tibori qaratilgan narsa (predmet), jarayon(voqeа), hodisa.
Model	(lot. modulus – o‘lchov, me’yor) – biror haqiqiy obyektyoki obyektlar tizimining obrazi yoki nusxasi bo‘lib, u izlanish

	olib borilayotgan sohaning ma'lum talablariga javob berishi zarur
<b>Modellashtirish</b>	bilish obyektlari (fizik hodisa va jarayonlar)ni ularning modellari yordamida tadqiq qilish, mavjud predmet va hodisalar modellarini yasash va o'rganishdan iborat jarayon.
<b>Kompyuter modeli</b>	dasturiy muhit vositalari bilan ifodalangan matematik model
<b>Matematik modellar</b>	obyektning tuzilishi va o'zaro bog'lanish qonuniyatlarining matematik munosabatlari, formulalari va matematik-mantiqiy tavsifidan iborat.
<b>Verbal modellar</b>	og'zaki yoki fikr shaklidagi axborot modeli
<b>Moddiy modellar</b>	modellashtirish obyektlarining moddiy nusxalari

## **2-rasm. Topshiriqlar izohlari.**

“Tushunchalar tahlili” metodidan bir darsning o‘zida dars boshlanishida o‘tgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash yoki yangi mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning dastlabki bilimlari, qanday tushunchalarni egallaganliklari va shu darsning oxirida bugungi mavzudan nimalarni bilib olganliklarini aniqlash uchun ham foydalanish mumkin.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak kafolatli natijalarga erishishdir, bu talabni yuzaga keltirishda pedagogik texnologiyalar to‘la ishonchli vosita bo‘la oladi.

Umumiy holda xulosa chiqarish mumkinki, zamonaviy sharoitda ta’lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li - bu mashg‘ulotlarni innovatsion metodlar yordamida tashkil etish va o‘quv jarayonida foydalanishdir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Umumiy o‘rtta ta’limning davlat ta’lim standarti. 2021 yil.
2. Umumiy o‘rtta ta`limning Milliy o‘quv dasturi. Informatika va AT. 2021 yil.
3. Informatika va axborot texnologiyalari. 9-sinf: O‘qituvchilar uchun o‘quv-metodik qo‘llanma. M. R. Fayziyeva, D. M. Sayfurov. – Toshkent: Tasvir, 2020. – 112 b.

4. R. Ishmuhamedov, M. Yuldashev. “Ta`lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Talim tizimi xodimlari, metodistlar, o‘qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun qo‘llanma. - Toshkent: “Adabiyot uchqunlari”, 2017. - 368 b